

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

AXMEDOV SARDOR SAYRIDDIN O‘G‘LI

**SURXON VOHASI TOJIKLARINING ETNOMADANIY
JARAYONLARDAGI O‘RNI (XX ASRNING OXIRI VA XXI ASRNING
BIRINCHI YARMI)**

07.00.07 –Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Axmedov Sardor Sayriddin o'g'li

Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o'rni (XX asrning oxiri va XXI asrning birinchi yarmi).....3

Ахмедов Сардор Сайриддин угли

Роль таджиков Сурханского оазиса в этнокультурных процессах(конца XX века и первой половины XXI века).....23

Axmedov Sardor Sayriddin o'g'li

The role of the tajiks of the Surkhan oasis in ethnocultural processes (in the late XX and early XXI centuries).....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

AXMEDOV SARDOR SAYRIDDIN O'G'LI

**SURXON VOHASI TOJIKLARINING ETNOMADANIY
JARAYONLARDAGI O'RNI (XX ASRNING OXIRI VA XXI ASRNING
BIRINCHI YARMI)**

07.00.07 –Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1151 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.terdu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portal (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Saypulla Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Doniyorov Alisher Xudayberdiyevich
tarix fanlari doktori, professor.

Qurbonova Manzila Bakiyevna
tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019. Tar.78.02 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «11.02» kuni soat 10.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino 4-qavat, Majlislar zali). Tel.:(99876) 223-13-11; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (171 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «04» 02 kuni tarqatildi.
(2023 yil «04» 02 kuni 17 raqamli reyestr bayonnomasi bilan).



R.E.Xalikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash Raisi o'rinbosari t.f.d.,
professor

H.E.Xolmuminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, t.f.n, dosent.

T.R.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d. professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda milliy masalalarni tahlikali sharoitdan olib chiqish maqsadida BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti (UNESCO) nizomiga ko'ra, "irqi, jinsi, tili va dinidan qat'iy nazar, barcha erkinliklariga umumiy hurmatni ta'minlash maqsadida har bir millatning ravnaqiga asos bo'ladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishishni ahamiyati ortib bormoqda. Hozirgi sharoitda rivojlanayotgan va kam tarqqiy etgan davlatlarida milliy davlatchilikni saqlab qolish hamda yuksaltirish borasida milliy etnogenez va uning tarixiga oid ma'lumotlar asosida bugungi va kelgusi sharoitda millatlarni taqdiri ijobiy hal etish dolzarb muammolariga aylanib bormoqda.

Dunyoni Angiliya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Koreya, Rossiya kabi yetakchi davlatlarning ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida BMTni (YUNFPA) yo'nalishida muhim ahamiyatga ega dasturlar yaratish tufayli mavjud muammolar o'z yechimini topmoqda. Xususan, jahon aholisini etnogenezi va etnik tarixni o'rganish tufayli hozirgi davrida aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyani huquqiy tizimlarni yaratish, iqtisodiy inqrozlardan qutulish, ochlik va qoshshoqlikni oldini olish, turli xil ommaviy tarqalayotgan pandemiya kasalliklarni oldini olish, shuningdek eng muhim sog'lom turmush tarzini yaratish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida millatlar o'rtasida hamdo'stlik g'oyalarni yanada jipislashtirish, moddiy-ma'naviy madaniyatdagi o'zaro aloqalarni yanda yuksaltirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohatlar tufayli mamlakatimiz taraqqiyotiga munsib hissa qo'shayotgan tojik xalqining turli etnik komponentlarning tarixiy birikishi va qorishuvi, vohaga tojik etnik guruhlarining joylashuvi, urf-odatlar, an'analar va marosimlarni aniqlash ilmiy mavzuni tadqiqi etishga asos qilib olindi. Surxon vohasida istiqomat qilayotgan tojik xalqining moddiy madaniyati, ma'naviy qiyofasi va diniy qarashlarini etnologik asosda batafsil yoritish, vohadagi maxalliy tojik aholisining o'ziga xos xususiyatlari, qadimiy moddiy va ma'naviy madaniyat ko'rinishlarini ilmiy tadqiq qilish mavzuni zaruriyatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 25-iyuldagi PQ-331-son "Mahallarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika Fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy

rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ishda tadqiq etilayotgan mavzuga bevosita va bilvosita aloqador adabiyotlar muammoviy – mavzuviy yondashuv asosida 3 guruhga bo‘lib tahlil qilindi: 1) Aholining etnohududiy joylashuvi va xo‘jalik faoliyatiga bag‘ishlangan asarlar; 2) Xo‘jalik va oilaviy marosimlar tahliliga oid tadqiqotlar; 3) Xalq og‘zaki ijodi va milliy o‘yinlarga bag‘ishlangan adabiyotlar.

Birinchi guruhga oid asarlarda tojik qishloqlarining geografik joylashuvi, aholining etnik tarkibi va xo‘jaligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltiriladi. Bu boradagi ilk tadqiqotlar XX asr olimlari, elchilari va harbiylari tomonidan amalga oshiriladi. Ulardan N.Mayev¹, Pokotilo², I.Mushketov³, I.Yavorskiy⁴, Vasilyev⁵, L.Kostenko⁶, Fedorov⁷, Belyavskiy⁸, I.Geyer⁹ va D.Logofetlarning¹⁰ asarlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Bu tadqiqotlarda ko‘proq chor Rossiyasining siyosiy maqsadlari ko‘zlangan bo‘lib, kelgusidagi harbiy harakatlar uchun ma‘lumot yig‘ishdan iborat bo‘lgan. XX asr o‘rtalaridan boshlab Surxon vohasi, shu jumladan, tojik qishloqlari aholisining antropologik tarkibi va urug‘larga bo‘linishi bo‘yicha muayyan tadqiqotlar olib borildi¹¹. Mustaqillik yillarida esa O.Bo‘riyev¹², singari tadqiqotchilar bu masalada yirik izlanishlarni amalga oshirishdi. Ularning ishlari oldingi tadqiqotchilardan farqli ravishda tavsifiylikdan ko‘ra ko‘proq ilmiy tahlilga harakat qilinganligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi guruhga oid asarlarda aholining xo‘jalik faoliyati va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq an‘anaviy marosimlar tahlil etiladi. Chunonchi, bir qator olimlar tomonidan o‘zbek xalqidagi oilaviy marosimlar va bola tarbiyasi bilan

¹Материалы для статистики Туркестанского края. Выпуск 5. –СПб., 1879.

² Отчет о поездке в пределы Центральной и Восточной Бухары в 1886 году Генерального штаба капитана Покотило. –Ташкент: Типография окружного штаба. 1888.

³ Мушкетов И.В.Туркестан. Геологические и орографические описание, по данным, собранным во время путешествий с 1874 по 1880 г., в двух частях, том 1. –СПб.,1886.

⁴ Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. Из дневника члена посольства доктора И.Л.Яворского. Том 1. –СПб., 1882.

⁵Васильев. Маршрутное описание дороги от Шерабада до города Байсун в 1889 г. // В сборнике географических, топографических, статистических материалов по Азии. Выпуск 57. –СПб., 1894.

⁶Костенко Л. Туркестанский край. Опыт военно-статистического обозрения Туркестанского военного округа. Материалы для географии и статистики России. Том II. –СПб., 1880.

⁷ Федоров. Статистический очерк Гузарского бекства и Куйтангского и Каллюкского амлякдарств Келифского бекства // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выпуск 57. –СПб., 1894.

⁸ Белявский. Описание обрекогносцированного участка, заключающего пройденные пути в пределах Шаар-Сабиз Гузарского бекства и части нагорной Дербентской возвышенности // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выпуск 57. –СПб., 1894.

⁹Гейер И. Путеводитель по Туркестану. Издание 1. –Ташкент, 1901.

¹⁰ Логофет Д. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том 1. –СПб., 1911.

¹¹Задыкина К.Л. Некоторые вопросы изучения этнического состава населения бассейна Кашка-Дарьи в Сурхандарьинской области Узбекской ССР // КИЭ. – Москва, 1962. Том. 37; Кармышева Б.Х. Некоторые данные к этногенезу населения южных и западных районов Узбекистана // «Краткие сообщения Института этнографии АН СССР», XXVII, 1957; Ўша муаллиф: Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976; Кисляков Н.А. Сайробские таджики // Советская этнография. №2. – Москва: Наука, 1965; Наджимов К. Антропологический состав населения Сурхандарьинской области (в связи с некоторыми вопросами этногенеза) // ТСАГУ. Выпуск 143. Биологические науки. Кн. 35. – Ташкент, 1958.

¹²Bo‘riyev O., Shaymardonov I., Nasriddinov Q. O‘zbekoilasitarixidan. (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari aholisi turmushidan tarixiy-etnografik lavhalar). – Toshkent: O‘qituvchi, 1995; Bo‘riyev O. Janubiy O‘zbekiston aholisi etnik tarixidan // Tarix, mustaqillik, milliyg‘oya. – Toshkent: Akademiya, 2001.

bog'liq udumlar o'rganilib, ilm-fan uchun qimmatli ma'lumotlar keltiriladi¹³. N.P.Lobacheva¹⁴, M.Jo'rayev¹⁵, S.Tursunov¹⁶, E.Qobilov¹⁷, T.Pardayev¹⁸ va boshqalarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Boysun xalqaro ekspeditsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlarda mintaqa aholisining an'anaviy turmush tarzi o'rganilgan¹⁹.

Uchinchi guruh oid asarlarda xalq og'zaki ijodi, xalq bayramlar va milliy o'yinlar bilan bog'liq tadqiqotlar keltirilgan. Jumladan, Sh.Ustayevning tadqiqotlarida o'zbek va tojik xalqlarining Navro'z bo'yicha mifologik qarashlari bayon etilgan²⁰. Ayniqsa, I.Abdurahmonovning ishlari diqqatga sazovor bo'lib, unda Janubiy O'zbekistonga xos bo'lgan ko'plab milliy o'yinlar tarixi va ularning lokal xususiyatlari tahlil qilingan²¹.

Bundan tashqari, mustaqillik yillarida aholining an'anaviy xo'jaligi va kiyimlari, bola tarbiyasi, milliy xalq o'yinlari, xalq og'zaki ijodi va turli marosimlarga bag'ishlangan bir qator dissertatsiyalar yoqlandi²². Biroq, yuqorida qayd etilgan

¹³Кисляков Н. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Ленинград: Наука, 1969; Кубаков К. К истории развития узбекской семьи // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент: Фан, 1972; Борозна Н. К вопросу о формах семьи и полукочевых узбеков (на материалах узбеков-дурменов) // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1978; Сухарева О. Традиции семейно-родственных браков народов Средней Азии // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1978; Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари. – Тошкент, 1992; M.Sattor. O'zbek udumlari. –Toshkent: Fan, 1993; NasriddinovK. O'zbekdafiynata'ziyamarosimlari. – Toshkent: Meros, 1996.

¹⁴Лобачева Н.П. К истории календарных обрядов у земледельцев Средней Азии // Древние обряды, верования и культура народов Средней Азии. – Москва, 1986.

¹⁵Jo'rayev M. Boysun xalq taqvimiga doir materiallar // Boysun tarixi va milliy madaniyati. Boysun ilmiy ekseditsiyasi to'plami. 2-nashr. – Toshkent, 2005.

¹⁶TursunovS., PardaevT., QurbonovA., TursunovN. O'zbekiston tarixi va madaniyati-Surxondaryo etnografiyasi.- Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006; TursunovS., TursunovA., Tog'aeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi-nashr, 2014; Tursunov S. Surxondaryo etnografiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

¹⁷ Kabulov E., Rajapova, S. Horse-breeding of the Oasis of Surkhan // Bulletin of Science and Practice, 2019, № 5(11).

¹⁸ TursunovS., PardayevT., TursunovA., Tog'aeva M. O'zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi. –Toshkent: Muharrir, 2012; Tursunov S., PardaevT., Mahmadiyoroova N. Surxondaryo – etnografik makon. –Toshkent: Akademnashr, 2012.

¹⁹AshirovA. O'zbek xalqining tabiat bilan bog'liq sayillari // «Boysun bahori» xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent, 2002; AshirovA., QayumovA. Boysun aholisining an'anaviy turmush tarzi: o'tmishda va hozirda // Boysun tarixi va an'analari. –Toshkent, 2005.

²⁰Устаев Ш.У. Навруз (Новый год) в мифологических воззрениях таджиков и узбеков / Труды Байсунской научной экспедиции. Археология, история и этнография. Выпуск 3. –Ташкент: San'at, 2007.

²¹AbduraxmanovI.R. Boysuno'yinlari //O'zbekistonsan'atshunosligi. Ilmiy to'plam. –Toshkent, 2003; O'sha muallif. Boysun tamoshaviy o'yinlari va marosimlari / Boysun tarixi va an'analari. –Toshkent, 2005.

²² Абдурахманов И.Р. Узбекские народные игры и представления (XX век, южные области Узбекистана): Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. –Ташкент, 1997; Хамракулова Б.М. Обычай и обряды Сурхандарьинского региона, связанные с рождением и воспитанием ребенка (конец XIX – начало XX в.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 2002; Ибрагимова М.Ю. Традиционная одежда и украшения населения Сурхандарьинского оазиса (конец XIX – начало XX в.). Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 2004; QurbonovA. Shimoliy Surxon vohasi aholisi an'anaviy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari (XIX asroxiri – XX asrning birinchi yarmi). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2009; QabulovE.A. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Surxon vohasi xo'jaligi. Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. –Toshkent, 2018; TursunovN.N. Janubiy O'zbekiston aholisi moddiy madaniyatidagi transformatsion jarayonlar. Tarix fanlari bo'yicha fan doktori (DSs) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Termiz. 2021; FayzullaevaM.X. Surxon vohasi ijtimoiy hayotidata omlar bilan bog'liq an'ana va marosimlar (XX-asr birinchi yarmi). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Toshkent, 2010; Umarov I. Ko'hitangtog' qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2022; Ahmedova G.O'.

tadqiqotlar ushbu mavzuning ayrim jihatlarini o'rganishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Surxon vohasi tojik aholisining moddiy va nomoddiy madaniyati yaxlit mavzu doirasida o'rganilgan emas. Bu esa mazkur mavzuni alohida tadqiqot ishi sifatida tanlash lozimligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining ish bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejası bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbekistonning janubiy hududlarida moddiy va etnomadaniy jarayonlarning etnologik tahlili" mavzusidagi loyiha, shuningdek, "43-2070927504 – Surxondaryo viloyati tarixiy ekoturizm salohiyati" ilmiy-amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonning janubiy hududlarida tojik xalqining ijtimoiy hayoti, madaniyati, urf-odati, an'analari, marosimlari, xalq xo'jaligi va o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlarining ma'naviy madaniyatida kechgan transformatsion jarayonlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Tojiklarining etnohududiy joylashuv, urug'larga bo'linishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

Voha tojiklari faoliyatida dehqonchilik va chorvachilik ko'nikmalarining jadallashuvi, xo'jalik an'analaridagi o'zgarishlardagi aloqalarini yoritish;

Surxon vohasi tojiklarining kiyim-kechaklari va zeb-ziynatlarida an'anaviylik va transformatsion jarayonlardagi o'zgarishlar dinamikasini tavsiflash;

An'anaviy taomlarni turlari va tayyorlanishdagi o'ziga xoslik va umumiylik xususiyatlarining ta'sirini aniqlash;

Voha tojiklari turmush tarzida ananaviy urf-odat va marosimlarning etnik xususiyatlarini tahlil etish;

An'anaviy xalq og'zaki ijodi va milliy o'yinlarining turlaridagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

Surxon vohasi tojiklarining moddiy va ma'naviy madaniyatining o'zbeklar bilan mushtarak bog'liqligini qiyosi asoslab berish;

Tanlangan mavzuni o'rganish va tahlil kilish xamda tarixiy-kiyosiy asosda zarur xulosalar va takliflar berish.

Tadqiqot obyekti. Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy integratsiyasiga xos milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiklik, ming yillar mobaynida shakllangan muqaddas an'analarida tutgan o'rni etnologik aspekt doirasida o'rganish belgilab olindi.

Tadqiqotning predmeti. Surxon vohasi etnomadaniy muhitida tojiklarining turmush tarzi, xo'jalik hayoti, moddiy va ma'naviy madaniyatidagi o'zgarishlar etnologik tadqiqot aksosida ko'rsatib berishni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, hududiy yondoshuv, qiyosiy tipologik tahlil, dala tadqiqotlari (suhbat, intervyu, kuzatuv), anketa so'rovnomasi o'tkazish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Surxon vohasining tog‘li qishloqlarida yashovchi tojiklarning tojik-qatag‘on, tojik-chig‘atoy kabi etnik va ijtimoiy guruhlardan tashkil topganligi, tojik-qatag‘onlarning Sina, Langar, Sangardak, Chorbog‘, Xufar, Dashtikaltatoy qishloqlarida, tojik-chig‘atoylarning esa Panjob, Darband, Sayrob qishloqlarida o‘rnashganliklari aniqlangan;

tojiklarning xo‘jalik hayoti dehqonchilikka asoslanganligi va bug‘doyning musulmka, qiltiqli, qayroqli, qizil bug‘doy navlarini, bog‘dorchilikda yong‘oq, bodom, do‘lana, pista daraxtlarni madaniylashtirganligi, bog‘lar va ekinzorlarni qo‘riqlashda ov qushlaridan foydalanishlari dalillangan;

Surxon vohasi tojiklari jundan mato to‘qishda “g‘o‘rim” deb ataluvchi to‘quv uskunasi ishlatishlari, Boysun do‘ppilarini tikishda to‘rt va sakkiz qirrali naqsh bilan bezash usullarini qo‘llaganliklari, zargar ustalar bilakuzuk, besh barmoq, silsila va tillaqosh, xapabandon kabi taqinchoqlarni yasaganliklari dalillangan;

tojiklarga xos ichki nikoh asosida kelinni ota uyida turishi, nikoh bilan bog‘liq soch turmaklash, kelin kiyimlaridagi kashta bezaklarining o‘ziga xos usullari, chaqaloqlar bilan bog‘liq it ko‘ylak kiyintirish, isiriqqa cho‘miltirish, 3-5-7-9 yoshida aqiqa o‘tkazish, yosh bilan bog‘liq muchal va sunnat to‘ylari, xalq o‘yinlari, og‘zaki ijod namunalari va dafn bilan bog‘liq marosimlar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: Surxon vohasi tojik aholisining turli xo‘jalik-madaniy tiplarga mansub xalqlar etnomadaniy an‘analarining uyg‘unlashuvi hamda integratsiya jarayonlari tahlilida foydalanish mumkin bo‘lgan nazariy va uslubiy yondoshuv ishlab chiqilgan.

Respublikamizda milliy-etnik totuvlik an‘analarini mustahkamlash va takomillashtirishda, milliy-madaniy markazlar xususan, tojik milliy madaniy markazi faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada zamonaviy tarix va etnologiya fanlarida e‘tirof etilgan turli-tuman yondashuvlarga tayanilganligi, tarixiy adabiyotlar hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fan vakillarining ilmiy izlanishlaridan samarali foydalanilganligi, etnografik tadqiqotlarni yoritishning vositasi sifatida dala tadqiqotlari natijasida olingan ma‘lumotlarga asoslanganligi, xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi hamda tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o‘rni dala tadqiqotlari, ilmiy adabiyotlar va turli arxiv ma‘lumotlar asosida ilk bor yaxlit holda yoritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, yig‘ilgan materiallar va ularning tahlili bo‘yicha qilingan ilmiy xulosalardan Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o‘rniga doir monografiyalarni yaratishga, ma‘naviyat markazlari uchun ma‘lumotnomalar tayyorlashda, shuningdek, mavzuga aloqador ilmiy-amaliy loyihalarni bajarishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxon vohasi tojik qishloqlari aholisi moddiy va nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi asosida:

Surxon vohasining tog'li qishloqlarida yashovchi tojiklarning tojik-qatag'on, tojik-chig'atoy kabi etnik va ijtimoiy guruhlardan tashkil topganligi, tojiklarning mahalliy o'zbek aholisi bilan o'zaro etnoslararo aloqalari natijasida Surxon vohasida o'zbek-tojik ikki tillilik hodisasi ro'y berganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi kanalida "Tojiklarning moddiy-ma'naviy madaniyatidagi o'ziga xos etnografik tahlillar" eshittirishida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 13-maydagi 06/31/615-son ma'lumotnomasi). Bu esa, mamlakatimiz aholisi, xususan, yoshlar ongiga insoniylik g'oyalarini singdirish, teleradio ko'rsatuv va eshittirishlari orqali an'anaviy xalq marosimlari va milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga xizmat qilgan;

Surxon vohasi tojiklarining an'anaviy marosimlari, urf-odatlar, taqvimlar hamda ularning etnik va hududiy o'ziga xosligi, milliy o'yinlarning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yil 1-avgustdagi 02/02/1235-son ma'lumotnomasi). Natijalar milliy an'analar va qadriyatlarni asrab-avaylash, keng targ'ib qilish, shuningdek yoshlar ko'nglida yurtsevarlik, madaniy va ma'naviy merosga hurmat tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi konferentsiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (ulardan 4 tasi respublika va 3 tasi chet el jurnallarida) maqola, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislari e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, olti paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi belgilab olingan. Mavzu bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Surxon vohasi tojiklarining etnogeografik joylashuvi va a'nanaviy xo'jaligi**" deb nomlangan. Uning birinchi paragrafi "*Voha tojiklarining etnohududiy joylashuv xususiyatlari*" deb ataladi.

Surxondaryo koʻhna va boy tarixga egadir. Surxondaryo vohasi tojiklari geografik-iqtisodiy jihatdan asosan vohaning shimoliy qismlarida joylashgan. Ushbu hududlar iqlimi, iqtisodiyoti va etnik oʻziga xosligi oʻzaro farqlanadi²³. Tadqiqot uchun Surxondaryo viloyatining shimoliy, gʻarbiy va sharqiy qisman janubiy tumanlari tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Ushbu hudud sharqda Tojikiston Respublikasi, gʻarbda Turkmaniston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati, janubda-Amudaryo orqali Afgʻoniston bilan chegaradosh. Maydoni 20,1 ming kv.km., 1774,4 mingdan ziyod aholisining 70 foizi qishloqlarda, 30 foizi esa shaharlarda yashaydi²⁴. Viloyatda 14 ta tuman, 8 ta shahar, 7 ta shaharcha va 114 qishloqlaryigʻinimavjud²⁵.

Surxondaryo viloyati tarixiy-geografik manbalarda, antik davrda Baqtriya, oʻrta asrlarda–Toxariston, soʻnggi oʻrta asrlardan to Oktyabr toʻntarishigacha Xisor oʻlkasi yoki Sharqiy Buxoro deb atalgan²⁶. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibiga kirgan edi. Vohahududi maʼmuriy jihatdan beklik va amlokдорliklarga boʻlingan. Bu davrda Surxondaryo vohasida Boysun, Sherobod va Denov bekliklari mavjud boʻlgan. Surxondaryo vohasi qadimgi Turon yerida ancha salohiyatli mavqega ega boʻlgan va Buyuk ipak yoʻli chorrahasida joylashgan Janubiy Surxon vohasi aholisining shakllanish jarayoni, anʼanaviy urf-odat va marosimlari vohaning shimoliy qismida oʻziga xosligi va asliyatini yaxshi saqlab qolgan. Shu bois vohani ilmiy tadqiqotimizning obʼekti sifatida tanlab oldik.

Surxon vohasidagi mahalliy tojik aholisining etnik shakllanish tarixi va xoʻjalik faoliyatiga oid muammolar tahlil etilgan. Oʻzbek davlatchilik tarixini xolisona yoritishda tojik xalqi etnografik etnik tarixini oʻrganish va etnologik jihatdan ilmiy tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Tarixdan maʼlumki, Surxon vohasida qadimdan tojik xalqlari yonma-yon yashab, oʻtroq sugʻorma dehqonchilik madaniyati sohiblari boʻlganlar. Shuningdek, XX asr XXI-asrning birinchi yarmida vohada tojik xalqi tarkibidagi etnik guruhlar yashagan. Umuman olganda, oʻrganilayotgan davrda Surxon vohasi tojik aholisini turmush tarzi, xoʻjaligi, urf-odatlar va urugʻ-qarindoshchilik anʼanalarining oʻziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan ikki guruhga boʻlish mumkin: 1) Qadimiy oʻtroq aholi, yaʼni urugʻchilik anʼanalariga ega boʻlgan oʻtroq aholi boʻlib, ularga Sinachi, Xufari, Malandi, Kishtoʻti, Niluchi, Xurvatani kabi etnik, lokal va ijtimoiy guruhlar kiradi; 2) Shayboniylar davrida, yaʼni XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Samarqand va Buxoro hududlaridan kirib kelgan Sayrobi, Panjobi, Darbandi kabi etnik guruhlar yashagan²⁷.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va dala tadqiqotlarimizga asoslanib, Surxon vohasi tojik aholisining etnik tarkibi quyidagi etnik va etnografik guruhlardan iborat ekanligi aniqlandi. Ushbu tadqiqotda tojik aholisining etnik tarkibini muayyan bir tarixiy izchillik asosida tarif berishga harakat qildik. Avvalo vohaning urugʻchilik anʼanalariga ega boʻlmagan, etnik va lokal xususiyatlarni oʻzida mujassam etgan va

²³Qarang: Roʻziyev A.N. Surxondaryo viloyati. -T., 1996. -B. 18; Oʻsha muallif: Surxondaryo suv omborlari va agrosanoat majmuini rivojlantirish masalalari. -B. 22.

²⁴Toʻxliiev N., Kremensova A. Oʻzbekiston Respublikasi: Ensiklopedik maʼlumotnoma. -T.: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002. -B. 123.

²⁵Oʻzbekiston Respublikasi: Ensiklopediya. -T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997. -B. 639.

²⁶Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. -С.3.

²⁷Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории Южных районов Таджикистана и Узбекистана. -М.: Наука, 1976. -С. 66; Боʻriyev O., Xoʻjamberdiyev T. Oʻzbek xalqi boqiy qadriyatlari. – Qarshi, 2005. –B. 84.

asosan o'troq dehqonchilik hududlarida yashagan tojik-chig'atoy, tojik-maxsim, tojik-eshon kabi etnik va ijtimoiy guruhlar keltirib o'tildi.

Tojik-qatag'onlar shimoliy Surxon vohasida Sina, Langar, Chorbog', Xufar, Dashtikaltatoy kabi qishloqlarda yashaydilar.

Tojik-chig'atoylar Boysun tumani Panjob, Sayrob, Darband qishlog'ida o'rnamashganlar²⁸.

XX asr oxiri-XXI asr boshlarida Surxon vohasi tojiklari ikki guruhga bo'lingan, ya'ni «tog'lik tojiklar», balandligi dengiz satxidan 1500 metr va undan yuqorida joylashgan Chosh, Karsh, Xo'njiza, Xo'jasmin, Debodom, Hisorak, Nilu Xufar qishloqlari Sariosiyo tumanida joylashgan tojik qishloqlari hisoblanib eng olis hudud Chosh qishlog'i tuman markazidan 110-120 km, tuman markaziga eng yaqini Xufar qishlog'i 30 km masofada joylashgan. Sina Darband Panjob Sayrob qishloqlari Boysun tumanida joylashgan qishloq tuman markazidan 50 km dan 30 km masofada joylashgan. Shahar va tuman markazlariga yaqin hududda joylashgan tojik qishloqlari Chorbog', Dashtikaltoy, Langar, Xurvatan, Yangixayot, Yangiturmush va Telpakchinor qishloqlarini o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi ikkinchi paragrafi. *“Voha tojiklarining xo'jalik faoliyatida dehqonchilik va chorvachilik ko'nikmalarining qaror topishi”* deb nomlangan. Dehqonchilik o'rta osiyo aholisi xo'jalik yuritishining asosiy tarmog'i hisoblanadi va bu soha o'zining qadimiy ildizlariga ega. Jumladan, Surxon vohasi ham qadimdan dehqonchilik madaniyati rivoj topgan, migratsiya jarayonlari faol kechgan o'lkalardan biridir. Zero, dehqonchilik madaniyati insoniyat tafakkurining ajoyib na'munalarini o'zida aks ettirgan bo'lib, unda etnoslarning ajdodlardan avlodlarga qoldirgan etnomadaniy an'analari mujassamlashgan.

Surxon vohasi aholisining dehqonchilik mashg'uloti o'rganilayotgan XX–XXI asr boshlari davri va hududga xos jihatlari haqida batafsil to'xtalishdan oldin bu joyda sug'orma dehqonchilikni paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiga oid ma'lumotlarni qisqacha tarzda bayon etishni maqsadga muvofiq.

Mazkur mintaqada dehqonchiligi milodgacha bo'lgan ikki ming yillikning oxirgi choraklaridan boshlangan bo'lib, uch ming yillik tarixga ega²⁹. Bu fikrga Surxon vohasi hududidan topib o'rganilgan arxeologik materiallar hamda o'lkaning qadimgi davriga oid yozma ma'lumotlar ham asos bo'ladi. Arxeolog olimlarning tadqiqotlariga ko'ra Surxon vohasi bu jarayon miloddan oldingi III ming yillikning o'rtalaridan boshlangan³⁰.

Surxon vohasi dehqonchilik tarixiga oid ma'lumotlar qadimgi yozma manbalarda, arab va fors tarixchilarning asarlarida, xitoy manbalarida, rus sayyohlari, geograflari va harbiylar kundaliklarida hamda o'zbek etnograf-olimlari tadqiqotlarida yoritilgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida kolonial siyosat olib borilishi natijasida voha sug'orma dehqonchiligining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari tadqiq etildi. Albatta, ular birinchi navbatda Imperiyaning siyosiy niyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan bo'lib, bevosita Rossiasining

²⁸Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории. –С. 64.

²⁹Tursunov S.N.Surxondaryo etnografiyasi.O'quv qo'llanma.-Toshkent:“Tafakkur nashriyoti”, 2020.–B.104-105.

³⁰Anorboyev.A O'zbekistonda ilk davlatchilik va uning o'rganilish tarixidagi ba'zibir muammolar // O'zbekiston tarixi. – 2004. №4. – B.10-11.

manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Biroq, rus tadqiqotchilari orasida chin ma'nodagi ilm-fan fidoyilari A.F.Middendorf, V.P.Nalivkin, G.O.Arandarenko, A.D.Grebenkin kabi izlanuvchilar Surxon vohasi tarixi hamda etnografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Bular haqida mazkur ishning yuqori qismlarida batafsil to'xtalgan edik. Biz uchun e'tiborlisi shuki, yuqorida qayd etilgan olimlar va tadqiqotchilarning ishlaridan vohada istiqomat qiluvchi turli xalqlarning etnik tarkibi, xo'jaligi bilan birga dehqonchilik mashg'ulotlariga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan.

Surxon vohasi uzoq yillardan buyon istiqomat qilib kelayotgan voha tojiklarining etnik guruhleri ham vohada kechgan etnomadaniy jarayonlarda faol ishtirok etib keldilar. Garchand voha tojiklari tog' va daryolar yon-atroflariga o'z xohish va istaklari bilan joylashgan bo'lsada, ammo bu joylar hosildorligi va unumdorligi past, sug'orish uchun noqulay bo'lgan hamda qarovsiz hududlardan iborat edi.

O'zbekiston hududida, xususan Surxon vohasi tojiklarining etnik guruhlarining dehqonchilikka o'tish jarayoni ular joylashgan hududlardagi daryolarning qurishi, chorva uchun yaylov va o'tlov maydonlarining keskin qisqarishi bog'liq edi³¹. Boz ustiga vohadagi tig'iz etnomadaniy aloqalar, etnoslararo faol integratsiya va assimilyatsiya jarayonlar hamda chorvador xalqlarning o'troqlashuvi natijasida dehqonchilikning rivojlanishi jadallashib borgan.

Surxon vohasi an'anaviy dehqonchiligining bu davrga xos etnolokal xususiyatlari borasida to'xtalganda, mintaqada dehqonchilik uchun yaroqli bo'lgan yer maydonlarini ikki turga ajratib ko'rsatish mumkin:

1) sug'oriladigan yer maydonlari, ya'ni "suvli yerlar". 2) sug'orilmaydigan yer maydonlari, ya'ni "lalmi", yerlar".

Lalmi yerlarda asosan boshqoli ekinlar ekilgan. Boshqoli ekinlar bilan ko'proq o'troqlashayotgan yarim ko'chmanchi (yarim o'troq) aholi shug'ullangan. Ular tomonidan tariq, arpa, bug'doy singari boshqoli ekinlar yetishtirilgan. Dehqonchilik uchun yangi yerlarni o'zlashtirishda ushbu o'troqlashayotgan chorvador xalqlarning roli katta bo'lgan³².

O'rta Osiyoda dehqonchilikning sug'orma dehqonchilikka asoslangan turi tarixan tarkib topgan bo'lib, mahsulot yetishtirish uchun dehqonlar suvni "etaklab" sug'orishi lozim bo'lgan³³. Suv dehqonchilikning asosiy daromad manbai hisoblangan. Shu bois, irrigatsiya inshootlari – ariq va kanallar chiqarish orqali mavjud yerlarni ekin maydonlariga aylantirish muhim vazifa bo'lib qoldi. Sun'iy sug'orish usuli asosida dehqonchilik qilishning mazkur tartibi oddiy va murakkab bo'lgan suv inshootlari, sug'orish qurilmalarini yaratilishiga olib kelgan. Vodiy dehqonchiligining lokal jihati shundaki, mahalliy dehqonlar o'z tajribalari asosida daryo va ko'l suvlarini sun'iy tartibda dehqonchilikka bo'ysundirganlar.

Shu maqsadda daryo va ko'llar bo'yiga kelib o'rtnashgan tojiklar botqoqlashgan yerlarni qamish va butalardan tozalab dehqonchilik qila boshladiganlar. Ular o'zlashtirgan maydonlarida dastlab tariq, jo'xori (oq jo'xori) sholi, kabi donli ekinlar

³¹Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Xufar qishlog'i. 2019-yil.

³²Tursunov S.N.Surxondaryo etnografiyasi.O'quv qo'llanma.-Toshkent:"Tafakkur nashriyoti", 2020.-B.104-105.

³³Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Denov tumani Sina qishlog'i. 2020-yil.

hamda oz miqdorda tarvuz va qovun singari poliz ekinlari yetishtirishga harakat qilganlar³⁴. Ushbu qamish va butalardan tozalangan, zaxi qochirilgan ekin maydonlarida yillar o'tib sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik qilish imkoniyati ham paydo bo'lgan. Ya'ni, ekin maydonlariga yaqin joylashgan ko'llarning suvidan sug'orish uchun foydalanishga intilishgan. To'palang daryo, Sherobod daryo, Sangardak daryo kabi daryolardan tojiklar ariq chiqarib, o'z ekin maydonlarini sug'organliklari haqida manbalarda ma'lumotlar ko'p.

Voha tojiklarining daryo bo'ylarida joylashuvining an'anaviy chorvachilik bilan bog'liq jihatlari tojik qishloqlarida olib borilgan dala etnografik ekspeditsiya natijalari, so'rovnomalar hamda keksa yoshdagi axborotchilardan olingan ma'lumotlarda ham o'z tasdig'ini topdi³⁵. Zero, daryo va ko'l bo'ylari tojiklar etnik guruhlarining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilib kelgan. O'z o'rnida shuni qayd etish o'rinliki, tojiklarni chorva mollarini boqish uchun mavjud yaylovlar va o'tloqlarda chorvani ko'payishi natijasida tojiklar chorvadorlari chorva mollarini boqish uchun yangi yaylovlar va o'tloqlarni izlab topishga majbur bo'lganlar. Aslida ular yirik shoxli mollarni ko'paytirish bilan azaldan, ham shug'ullanib kelganlar. Qolaversa, voha hududlari ayniqsa tog'li hududlarda tojiklar uchun yirik shoxli mollarni boqish hamda an'anaviy chorvachilikni rivojlantirishda keng imkon bergan edi. Mayda shoxli hayvonlar qo'y, echkilar, asosan bozorlarda sotish uchun boqilgan bo'lib, bu turdagi jonivorlar har bir tojik xonadonida saqlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Voha tojik aholisining moddiy madaniyati deb nomlangan". Bobning birinchi paragrafida *"Surxon vohasi tojiklarining milliy kiyim-kechaklari va zeb-ziynat buyumlarining an'anaviy tasnifi"*da mintqa aholisining kiyimlaridagi o'zgarishlar tadqiq qilingan. Voha tojiklarining ananaviy kiyimlari va taqinchoqlari moddiy madaniyatning mushtarak bir qismini tashkil etib, xalqimizning milliy xususiyatlari, urf odatlari hamda estetik didini namoyon etgan. Boshqa xalqlar kiyimlari singari o'zbeklarning ananaviy kiyimlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda urf-odat, marosim, an'analar tasirida davrlar o'tishi davomida o'ziga xos xususiyatda shakllanib, rivojlanib kelgan. Rus elshunos olimasi O.A.Suxareva ta'biri bilan aytganda: «Kiyimning yuzaga kelishi va turlarining ko'payishida kishilarning yashash tarzi, mehnati va iqlim sharoitidan tashqari, ularning madaniy rivojlanishi, estetik didlarining o'sishi ham asosiy omillardandir»³⁶.

Kiyimlar davrlar o'tishi bilan, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos tarzda rivojlanib boradi. Bu esa tadqiqotchilardan kiyimlar tarixini o'rganish va uni yoritishda katta mas'uliyat talab etadi. Chunki xalqlarning etnik tarkibini o'rganishda hamda uni ilmiy asoslashda kiyimlarning davrlar o'tishiga qaramasdan o'z milliyligini saqlab qolganligi o'ziga xos o'ringa ega³⁷. Eng avvalo, kiyim-kechaklarni

³⁴Кисляков Н.А. Семья и брак у таджиков. –М.–Л., 1959.–С.

³⁵Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Debodom qishloqlog'i. 2021-yil.

³⁶Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // ТИЭ. –М.–Л., 1954. Т. XXI. –С. 250-289.

³⁷Задыхина К.Н., Сазонова М.В. Мужская одежда узбеков Хорезма конца XIX – начала XX в. // Костюм народов Средней Азии. –М., 1979. –С. 151-168.

ilmiy tahlil etishda ularning asosini tashkil etgan matolar va mato tayyorlash usullariga to'xtalmoq lozim.

XX asr oxiri – XXI asrning birinchi yarmida Surxon vohasida tojiklarni kiyim-kechaklar uchun zarur bo'ladigan matolar asosan uy sharoitida tayyorlangan. Hudud tojik aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan ko'proq mashg'ul bo'lganligi uchun matolar paxta va jundan, ba'zi hollarda esa ipakdan tayyorlangan. XX asrning boshlariga qadar Denov markazi, Vaxshivor, Sangardak, Xonjizza, Sina, Sho'rchi, Qarluq kabi hududlardagi tojik aholisida teriga ishlov berib, bosh, ustki va oyoq kiyimlar hamda shu kabi boshqa kiyimlar ishlab chiqarish o'ziga xos tarzda rivojlangan³⁸.

Tadqiq etilayotgan davrda Surxon vohasi tojiklarning kam sonli etnik guruhlar paxtadan turli xildagi matolar to'qigan. Umuman, xalqona kiyimlar uchun asos bo'lgan matolarni tayyorlashda ham badiiy uslub asta-sekin o'zgarib bordi, ammo XX asrning 20-yillari oxiridayoq to'qish texnikasida muayyan siljishlar sodir bo'lgan. Chunonchi, mahalliy tojik ustalar tomonidan ishlab chiqariladigan matolarga fabrika iplarining qo'shilishi, jumladan, mahalliy usulda tayyorlanadigan alachalarga Rossiya fabrikalarida tayyorlangan iplarni qo'shib tayyorlash ularning yuqori sifatli, nafis va tekis matoga aylanishiga olib kelgan³⁹. Lekin sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ishlab chiqarilgan matolar o'zining an'anaviy ko'rinishini saqlab qoldi. Bu davrda voha tojik aholisi kiyimlari avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadimiy matolardan – olacha, bo'z, xonatlas, qalami, banoras, shoyi, beqasam, adras, so'si va boshqa matolardan tikilgan.

XX asr boshlarida rasm bo'lgan o'ziga xos chiziq o'tkazish uslubi davom ettirilgan va rivojlantirilgan. Tojik ayollar va bolalar uchun kiyim tikishda ishlatiladigan beqasamning och pushti rangi paydo bo'lgan. 1930-yillarda nimshoyi matolarni ishlab chiqarishda gulbosma usulda mato ishlab chiqarishga ixtisoslashgan rus fabrikalarida ishlab chiqarilgan arzon ip gazlamalarning ko'plab keltirilishi munosabati bilan mahalliy matolar keskin kamayib ketgan⁴⁰.

Surxon vohasi tojik aholisining kiyimlari haqida to'xtalganda shuni inobatga olish kerakki, vohaning Boysun, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo, Sherobod tumanlarida *Sina, Xonjiza, Xo'jaasmin, Chosh, Hurvatan, Kishtut, Debodom, Desurx, Pastikalon, Pushtivaraq, Maland, Xufar* kabi qishloqlaridagi tojiklarning kiyim tikishidagi marosim va urf-odatlar har xil bo'lsa-da, lekin kiyimlarning tikilish uslubi deyarli bir xil bo'lgan⁴¹.

Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma'lumki, tojik milliy kiyimlarining taraqqiy etib, o'zgarib borishi doimiy jarayon bo'lsa-da, lekin kiyim-kechaklardagi jiddiy burilishlar XIX asr so'nggi choragida va XX asrda yuz bergan. Ayniqsa, ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va fan-texnika taraqqiyoti davri hisoblangan XX asrda o'zbek milliy kiyimlari rivojida «inqilobiy» o'zgarishlar sodir bo'lib, ularning

³⁸Dala yozuvlari. 2019-2020 yillar. Denov tumani Dahana, Oybarik qishlog'i.

³⁹Сухарева О.А. Художественные ткани // Рукопись Института искусствознания. Инв. 291.–С. 18.

⁴⁰Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. –B. 115-116.

⁴¹Dala yozuvlari. 2019-2020 yillar. Sariosiyo, tumani Xufar.

konstruktiv-texnologik va kompozitsion qurilishida yangi usullar, bichimlar paydo bo'lgan.

O'zbek xalqi an'anaviy kiyimlarining transformatsiyasini maxsus tadqiq qilgan S.Davlatovaning yozishicha, bu davrda bir tomondan, O'zbekiston hududida sodir bo'lgan turli tarixiy jarayonlar, xususan, tojiklar turmush tarziga rus va Yevropa madaniyatining jadal kirib kelishi mintaqa xalqlarining ma'naviy hayotiga sovet mafkurasining majburan joriy etilishi bilan birga texnika taraqqiyotidagi qator o'zgarishlar ham milliy kiyimlarning tikilishi, bichimi, shakli va kiyimlar uchun ishlatiladigan mato turlari hamda mato tayyorlash texnologiyasining jiddiy o'zgarishiga olib kelgan⁴². Vohada tojik erkaklarning yengil kiyimlaridan biri ko'ylak bo'lib, ko'ylaklar o'yma yoqa, yelka yoqa hamda kiftaki deb nomlanib, yoqalari qo'lda tikilgan hoshiyalar yoki jiyaklar bilan bezatilgan. Bo'yi tizzadan pastga tushirilgan bo'lib, yenglari keng hamda uzun bo'lgan. Tojik erkaklarning kiyim tagidan kiyadigan yengil ich kiyimlaridan biri yaktak ko'ylakdir. Yaktak ko'ylakning yoqasi ichidan to'rtburchak shaklda qo'shimcha mato qo'yilib, oldi ochiq bo'lgan⁴³. Yengil kiyimlardan bo'lgan tik yoqali ko'ylak, uzun va keng yenglari, bo'yi hamda uzun old yoqasi bilan farq qilgan⁴⁴.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi *An'anaviy taomlarda o'ziga xoslik va umumiylik* deb nomlangan. Insonning jismoniy rivoji, kuch-quvvati hamda salomatligi, qolaversa, aqliy kamoloti rivojlanishida asosiy manba bo'lgan taomlar xalq madaniyatining ajralmas tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladi.

Har bir xalq jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanish jarayonida turli-tuman taomlarni yaratgan. Shubhasiz, har qanday etnos an'anaviy taomlari ham ushbu xalq turmush tarzi, avvalo xo'jalik mashg'ulotlari, milliy va diniy qarashlari asosida, mahalliy tabiiy shart-sharoitga bog'liq holda o'zgarib, rivojlanib boradi. Qolaversa, moddiy madaniyatning muhim komponentlaridan biri bo'lgan xalq an'anaviy taomlari, ularning tayyorlanish usullari, hatto taomlar bilan bog'liq an'ana va marosimlar ushbu xalq xo'jaligining yo'nalishi va etnos turmushtarziga bog'liq holda shakllanib borgan. U yoki bu etnik jamoaning xo'jaligi hayotida, turmush tarzidagi har qanday o'zgarish uning an'anaviy taomlarida ham o'z aksini topgan.

XX asrning oxiri – XXI asrning birinchi yarmida voha tojiklarida dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan tojiklar taomlarida asosan donli hamda sabzavotli taomlar keng o'rin olgan bo'lsa, chorvachilik bilan shug'ullangan do'rmonlar, yuzlar, qatag'onlar esa qatiq-sut, yog' va go'shtni ko'proq iste'mol qilishgan⁴⁵.

O'rganilayotgan voha tojiklarida don va donli mahsulotlardan taom tayyorlash muhim ahamiyat kasb etgan. Tojiklarida esa suv hamda hayvon kuchi bilan harakatga keltiriladigan tegirmonlarda tortganlar⁴⁶. Bug'doy tog'li hududlarda lalmi usulda yetishtirilgan bo'lsa, daryo bo'ylarida va unga tutash hududlarda sug'orma usulda

⁴²Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik ... – B. 113.

⁴³Dala yozuvlari. 2019-yil Sina, Sina qishloqlari.

⁴⁴Dala yozuvlari. 2020-yil. Uzun tumani Maland, Mehnat qishloqlari.

⁴⁵Qipchoqlar ham taomlarni shutartibda iste'mol qilishgan. *Qarang*: Шаниязов К.Ш., Этнические истории узбекского народа. –Ташкент, 1974. –S. 271.

⁴⁶Dala yozuvlari. 2019-yil. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Debodom qishloqligi.

yetishtirilgan. Surxondaryo, Qoratog'daryo, Xo'jaipokdaryo, Obizarangdaryo, To'palang daryosining yoqalarida donli ekinlardan ko'proq sholi yetishtirilgan⁴⁷.

Chunonchi, XX asrning boshlarida vohada arpa un, jo'xori un, bug'doy un, makkajo'xori unlaridan turli xildagi taomlar hamda nonlar tayyorlangan.

Surxon vohasi tojiklarida ham XX asrning oxiri XXI-asrning birinchi yarmida nonning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, «obinon» «jizzalinon», «sutlinon», «patirnon» «qozonpatir», «yog'linon», «lochiranon» kabi turlari mashhur bo'lgan. Shuningdek, vohada o'rganilayotgan davrda jo'xori unidan «zog'oranon», arpaunidan «arpanon», tariqunidan «tariqnon», «tariqzog'ora», hamda kambag'al oilalar esa qurg'oqchilik kelgan yillarda kepakdan «kepaknon» iste'mol qilishgan.

Voha tojiklarida tandirlarning «yertandir» hamda «devortandir» singari turlari o'rnatilishiga qarab bir-biridan farqlangan. Masalan, «yertandir»lar turk, qarluq, qatag'on, barlos kabi etnik guruhlarda bo'lsa, «devortandir»lar esa o'troq tojik aholisi bo'lgan chig'atoy, xo'jalarda uchraydi. Non yopishda tandir yaxshi qizdirilib, yenglik kiyib, rapida yordamida yopiladi. Azaliy tumush tarzi chorvachilik bo'lgan yuz, do'rmon va qo'ng'irotlarning non pishirishda «tovatoshlar» dan foydalanganliklari kuzatiladi. Non pishirishda xamirturush (achitqi)dan xamirning tobiga kelishida foydalanib, voha tojiklarida «ko'pirtirmanon», qatag'onlar, turklar, o'shorilar, ketarilar «keldirmanon», Denov, Sariosiyo hamda Uzun tumanlari tojiklarida esa «nonirasida» debataganlar⁴⁸. Jizzali non ham obinon singari vohada keng tarqalgan bo'lib, obinondan farqi shundaki, xamir qorilayotganda jizza aralashtirilib qorilgan va obinon singari pishirilgan. Tojiklarda sutlinon qilishda suv o'rnida sut ishlatilgan, buxildagi nonlarni uzoq safarga chiqqan kishilarga atayin ko'proq pishirib berilgan.

